

“Mustaqillik kubogi”: basketbol bahslarida g'oliblar aniqlandi

// 20 August 2026 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mustaqillik-kubogi-basketbol-bahslarida-g-oliblar-aniqlandi>



O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “O'zkimyosanoat” AJ tizimidagi korxonalar xodimlari o'rtasida tashkil etilayotgan **“Mustaqillik kubogi” sport musobaqalari qizg'in davom etmoqda.**



Navbatdagi bahslar basketbol sport turi bo'yicha o'tkazilib, jamoalar maydonda o'zlarining mahorat, chaqqonlik va jamoaviy hamjihatligini namoyon etdi.

Murosasiz va qizg'in kechgan uchrashuvlar yakuniga ko'ra:

- 1-o'rin — "Qo'ng'iro't soda zavodi" jamoasi.
- 2-o'rin — "Navoiyazot" AJ jamoasi;
- 3-o'rin — "Indorama-Farg'onaazot" AJ



Musobaqalar nafaqat sportdagi eng kuchli jamoalarni aniqlash, balki tarmoq korxonalari xodimlari o'rtasida do'stona muhit, jamoaviy ruh va sog'lom raqobatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

